YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON QADRI AZIZ!

YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 17-iyun, №23 (8041)

ENG MUHIM VAZIFAMIZ – MAMLAKATIMIZDA TINCHLIK VA FAROVONLIKNI MUSTAHKAMLASH, ODAMLARNI, XALQIMIZNI HAYOTDAN ROZI QILISHDAN IBORAT.

Shavkat MIRZIYOYEV

Yangi O‘zbekiston ruhi



BOSH MAQSADIMIZ – HAMMA VA HAR BIR INSON FAROVONLIGINI TA’MINLASH

Inson hayoti davomida baxtli va farovon yashashga intiladi. Farovonlik esa shunchaki moddiy ne’matlar yoki qulay turmush tarzidan iborat emas. U insonning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, sifatli ta’lim olishi, malakali tibbiy xizmatdan foydalanishi, mehnat qilishi, oila qurishi, farzandlarini kamol toptirishi va ertangi kunga ishonch bilan qaray olishi kabi ko‘plab omillar uyg‘unligidan tashkil topadi. Shu bois bugungi kunda inson qadri va uning manfaatlarini ta’minlash davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda.

“Bosh maqsadimiz — hamma va har bir inson farovonligini ta’minlash” degan ezgu g‘oya zamirida ham ana shu yuksak maqsad mujassam. Bu shunchaki shior yoki da’vat emas, balki mamlakat taraqqiyotining bosh mezoni, amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning mazmun-mohiyatini ifodalovchi hayotiy tamoyildir.

Bugun Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar markazida aynan inson manfaatlari turibdi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, bandlik, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, mahallalarni rivojlantirish, uy-joy sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlar va yoshlar manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli dasturlar bitta ulug‘ maqsadga — har bir fuqaroning munosib hayot kechirishi va o‘z kelajagiga ishonch bilan qarashi uchun xizmat qilmoqda.

Zero, jamiyatning haqiqiy rivojlanishi ulkan binolar, zamonaviy inshootlar yoki iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilangina emas, avvalo, insonlarning hayotdan rozi bo‘lib yashashi, o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon etishi va farovon turmush kechirishi bilan belgilanadi.

BUNYODKORLIK – TARAQQIYOT VA FAROVONLIK POYDEVORI

Bekobod tumanida ham aholi farovonligini oshirish, yashash sharoitlarini yaxshilash va hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari izchil davom ettirilmoqda. O‘tgan yildan buyon amalga oshirilayotgan qurilish, obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish loyihalari buning yaqqol tasdig‘i bo‘lib, ular minglab fuqarolarning turmush sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Xususan, o‘tgan yilda tumanimizda davlat budjetidan jami 370 milliard so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirildi. Maktablar, bolalar bog‘chalari, sog‘liqni saqlash va sport muassasalari hamda mahalla idoralari – jami 34 ta ijtimoiy obyektlar qurildi va ta’mirlandi.

Tuman markazidagi 51 ta ko‘p qavatli uylar va 105 kilometr yo‘llar ta’mirlandi. Shuningdek, 44 kilometr markazlashgan ichimlik suvi tarmog‘i tortilib, aholining ichimlik suv bilan ta’minlanganlik darajasi 80 foizga yetkazildi.

2025-yilning eng muhim voqealaridan biri – muhtaram Prezidentimizning Bekobod tumaniga sovg‘alari sifatida 40 ming aholiga qulaylik yaratgan Sirdaryo ustida muhtasham ko‘prik barpo etildi. Sirdaryoning ikki qirg‘og‘ida yashovchi aholining uzoq yillar davomida qalblarida saqlanib kelgan katta orzusi nihoyat o‘z ifodasini topdi. Mazkur hududda ko‘prik barpo etish tashabbusi nafaqat yo‘l-transport infratuzilmasini yaxshilash, balki ikki sohil aholisining o‘zaro muloqoti, iqtisodiy hamkorligi va ijtimoiy aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan edi.

Aholi orasida yillar davomida asrab kelingan ushbu ezgu niyat o‘tgan davr mobaynida turli sabablar bilan kechikib kelgan bo‘lsa-da, orzu so‘nmagan, umid uzilmagan. Bugun esa qariyb qirq yil davom etgan kutilishlardan so‘ng ushbu tarixiy loyiha hayotga tatbiq etildi. Sirdaryo ustidan yangi ko‘prikning qurib bitkazilishi natijasida nafaqat hududlar o‘rtasida transport harakati qulaylashdi, balki aholining hayot sifati, imkoniyatlari va istiqbollari ham sezilarli darajada kengaydi.

Tumanning Do‘stlik va Yangiovul mahallalarini bog‘lovchi bu inshoot tarixi o‘tgan asrning oxirlariga borib taqaladi. Gap shundaki, 1989-yilda ilk marta ruxsat olinib, qurilish boshlangan, ammo 1991-yilda turli sabablar bilan to‘xtab qolgan.

Yillar o‘tib, zamon o‘zgardi, avlodlar almashdi, ammo ushbu ezgu niyat xalq qalbidan hech qachon o‘chmadi. Orzu yashadi, umid uyg‘onib turdi. Nihoyat, Prezidentimizning 2025-yil 24-iyuldagi qarori bilan mazkur loyiha bo‘yicha amaliy ishlar qayta yo‘lga qo‘yildi va uzoq yillar davomida turli sabablar bilan orqa rejalarda qolib ketgan tashabbus yana markazga chiqdi. Mazkur qaror hudud aholisining ko‘p yillik orzusi, ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari va strategik ahamiyatga ega vazifalar bilan uyg‘un holda, aniq belgilangan reja asosida hayotga tatbiq etildi. Natijada, avvallari go‘yoki uzoq va qo‘l yetmasdek tuyulgan, hatto ba’zi davrlarda sarob singari ko‘ringan ushbu muhim masalaning yechimi topildi. Ishonch, qat’iy siyosiy iroda va izchil harakatlar samarasi sifatida katta infratuzilma loyihasi nihoyasiga yetkazilib, el kutgan kun ro‘yobga chiqdi.

Davomi 2-betda



Boshlanishi 1-betda

Shu kuni Do‘stlik mahallasining yangi binosi ham foydalanishga topshirildi. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida avtomobil yo‘li bo‘ylariga manzarali daraxt ko‘chatlari ekildi. Mahalla yoshlari o‘rtasida esa yugurish marafoni o‘tkazildi.

Loyihaning umumiy qiymati 65 milliard so‘m, ammo uning qiymati faqat pul bilan o‘lchanmaydi. Chunki bu ko‘prik xalq hayotini o‘zgartirayotgan, yuzlab, minglab insonlar taqdiriga yorug‘lik olib kirayotgan, umidni qayta tiriltirayotgan loyihadir. 200 metrli ko‘prik va 6 kilometrli zamonaviy avtomobil yo‘li nafaqat harakat uchun qulay, balki taraqqiyot, obodlik va farovonlik yo‘lining ramziga ham aylandi.

Yo‘l bo‘ylab tungi yoritish chiroqlari porlab, yangicha hayotga yo‘l ko‘rsatgandek nur sochadi. Piyodalar uchun yo‘laklar, nogironlar uchun maxsus qulayliklar, yangi to‘rt tasmali yo‘l – bularning barchasi inson qadriga bo‘lgan hurmat ifodasidir.

Eng muhimi, endi sohilning narigi tomonidagi mahallalarda yashovchi aholining tuman markazigacha bo‘lgan masofasi 44 kilometrgacha qisqardi. Bu – odamlarning vaqtini, mehnatini, hayotini tejaydi. Bu – oilalar tezroq uchrashadi, farzandlar maktabiga qulay va xavfsiz yetib boradi, tadbirkor-u dehqonlar mahsuloti bozorga tezroq kiradi, deganidir.

– Men shu mahallaga tutash manzilda yashayman, – deydi fuqaro Raimjon Kimsanboyev. – Yangiovul mahallasiga to‘y-ma’rakalarga borish uchun ancha vaqtimiz ketardi. Yo‘llar ham abgor ahvolda edi. Zamonaviy ko‘prik qurilishi bu muammolarni bartaraf etdi.

– Mahallamiz tez fursatda yangi qiyofaga kirdi, undagi bunyodkorlik ishlari mahallani Respublika miqyosidagi namunaviy mahallaga aylantirdi desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Ochig‘i Sirdaryoga yaqin yashasam ham, uning sohilini yillar davomida ko‘rmas edim. Olis va qarovsiz tuyulgan bu maskan bugun nafaqat butun mahalla ahlini, balki ko‘plab vatandoshlarni birlashtirgan obod manzilga aylandi – deydi, Do‘stlik mahallasida yashovchi Halima aya Abduvaliyeva.

Bekobod uchun bu ko‘prik – yangi hayot, yangi rivoj, yangi nafas demakdir. Endilikda u tumanning “yuzi”, iftixor timsoli, elning hamjihatligi va mehnati bilan qurilgan mo‘jiza sifatida uzoq yillar davomida xizmat qiladi.

“Zafar” va “Dalvarzin” hududi o‘rtasida piyodalar va velosiped yo‘laklari qurilib, Toshkent ko‘chasini 24/7 konsepsiyasi bo‘yicha rekonstruksiya qilish ishlari yakunlandi.

Tumanimiz tarixida mutlaqo yangi va yirik loyihalar – 30 ming aholiga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston” massiviga poydevor qo‘yish arafasida turibmiz, “Bekobod – Bo‘ka – Piskent – Nurafshon – Toshkent” temir yo‘li qurilishiga esa start berildi va ayni kunlarda jarayonlar avj pallada.

Tuman markazida qurilgan 400 o‘rinli Ay-Ti parkni ham alohida qayd etish lozim. Chunki ushbu zamonaviy inshoot salohiyatli yoshlarni o‘zida qamrab olib, tumanimizning eng ilg‘or va o‘tkir zehnli yoshlarini butun dunyoga olib chiqadi.

Markaziy xiyobonni rekonstruksiya qilish, yo‘l chetlarini yashil hududga aylantirish hamda ichki irrigatsiya tizimini yaxshilash ishlari jadal sur’atlarda davom ettirilmoqda.

TIBBIYOTDAGI ISLOHOTLAR INSON QADRI UCHUN



Joriy yilda esa tumanimizda ijtimoiy obyektlarni qurish va xizmat ko‘rsatishni yaxshilash uchun jami 450 milliard so‘mdan ortiq mablag‘lar yo‘naltiriladi. Ushbu mablag‘lar evaziga, tuman markaziy tibbiyot birlashmasi eng ilg‘or va zamonaviy andozalarda modernizatsiya qilinadi, qo‘shimcha yangi binolar quriladi hamda noyob uskunalar bilan jihozlanadi.

Dastlabki qiymati 40 milliard so‘m bo‘lgan ushbu loyihani amalga oshirish orqali, avvalo, Bekobod va Bo‘ka tumanlari hamda Bekobod shahrida yashovchi 400 mingdan ortiq aholi uchun yengillik va qulaylik yaratiladi. Qolaversa, qo‘shni viloyatlar va Tojikiston Respublikasidan keluvchi bemorlar uchun tibbiy turizm bo‘yicha mintaqaviy xab sifatida xizmat qiladi.

Bekobod tuman Ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasining bolalar bo‘limi 2025-yil iyul oyiga qadar 1965-yilda qurilgan eski binoda faoliyat yuritgan bo‘lib, endilikda zamonaviy, 1 qavatli, markaziy shifoxona hududidagi binoda ish olib bormoqda. Buning natijasida aholiga markazlashgan holda tibbiy xizmatni amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

Bolalar bo‘limida stomatolog, LOR shifokori, bolalar endokrinologi, bolalar kardiorevmatologi, allergolog, bolalar travmatologi, massaj hamshiralari, bolalar oftalmologi kabi tor soha mutaxassislari faoliyat yuritmoqda. Bir qator zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar keltirilgan bo‘lib, jumladan LOR sohasini rivojlantirish maqsadida LOR kombayni, stomatologiya xizmatini rivojlantirish maqsadida BOR mashinasi, Laboratoriya xizmatini rivojlantirish maqsadida IFA apparati, gemotologik, bioximik analizatorlar kabi zamonaviy tibbiy texnikalarning keltirilishi aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishni ta’minlaydi.

Tuman Ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasining bolalar bo‘limi 200 qatnovga mo‘ljallangan bo‘lib, tumanning barcha mahallalaridagi oilaviy poliklinika shifokorlaridan yo‘llanma olgan bolalar belgilangan tartibda mutaxassis ko‘rigidan o‘tadilar. Bu esa tibbiy xizmatlarda tartib va samaradorlikni ta’minlaydi. Bolalarga birinchi yordam ko‘rsatish maqsadida muolaja xonalari ham tashkil etilib, ular zarur jihoz va dori-darmonlar bilan to‘liq ta’minlangan.

— Farzandim ikki yoshdan oshgan. Shu paytgacha uni tibbiy ko‘riklarga yoki biror-bir shifokor qabuliga olib borganimda uzundan uzun navbatlar, endi navbatim yetib kelganida, boshqa bir binoga borib tahlil topshirish kerakligi, xullas shunga o‘xshash muammolar bilan qiynalar edim. Hozir esa barchasi bitta binoda, zamonaviy jihozlar, texnikalar, elektron navbatlar, tozalik, ozodalik va asosiysi tartib, bularning barchasi men kabi yosh bolasi bor ota-onalar uchun katta qulaylik. Mana shunday qulayliklar yaratib berayotgan, avvalo, yurtboshimizdan, shuningdek, ularning vakili sifatida barcha islohotlarni birma-bir amalga oshirayotgan mutassaddi rahbarlardan minnatdormiz, — deydi Nilufar Sattorova.

Tumanda tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish aholi, ayniqsa, bolalar sog‘lig‘ini muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangi binoda ish boshlagan bolalar bo‘limi nafaqat tibbiy xizmat sifatini oshiradi, balki kelajak avlodning sog‘lom va barkamol o‘sishiga ham xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda tibbiy xizmatni modernizatsiya qilish, yuqori texnologiyali jarrohlik amaliyotlarini keng joriy etish va aholiga malaka darajasi yuqori, zamonaviy tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ilgari faqat respublika ixtisoslashgan tibbiyot markazlarida amalga oshiriladigan ko‘plab murakkab operatsiyalar bugunga kelib tuman darajasida ham muvaffaqiyatli bajarilmoqda.

O‘tgan 2025-yil mobaynida Bekobod tuman Tibbiyot birlashmasi “Qo‘shma jarohatlar va yurak-qon tomir kasalliklari” bo‘limida tuman tarixida ilk bor “Aorta koronar shuntlash” jarrohlik amaliyoti ikki bemorda — “Parchayuz” MFYda istiqomat qiluvchi 1959-yilda tug‘ilgan Alimova Inobat hamda Bekobod shahar “O‘zbekiston” MFYda istiqomat qiluvchi 1965-yilda tug‘ilgan Toshpo‘latov Boymirzada muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Shuningdek, tug‘ma yurak nuqsoni bor 3 nafar bolaga endovaskulyar amaliyotlar, 1 nafar bolaga esa yurakning ochiq turdagi jarrohlik amaliyoti muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Bundan tashqari, tuman tibbiyot birlashmasida ilk bor endoprotezlash (bo‘g‘im almashtirish) jarrohlik amaliyoti muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Mazkur murakkab operatsiya ilgari faqat Respublika travmatologiya va ortopediya institutida amalga oshirilgan bo‘lsa, endilikda Bekobod shifokorlari ham bu yo‘nalishda katta tajriba orttirmoqda.

Joriy yilda esa Bekobod tumani fuqarosi, 1980-yilda tug‘ilgan S.Mamadaliyevda murakkab jarrohlik amaliyoti orqali bosh miyaning chap yarim sharida joylashgan qaytalanuvchi hajmli hosila — melanoma olib tashlandi. Malakali shifokorlarning fidokorona mehnati va tezkor harakatlari natijasida jarrohlik amaliyoti muvaffaqiyatli o‘tdi.

Bugungi kunda tuman tibbiyot birlashmasi MSKT (multispiral kompyuter tomografiya), angiografiya, S-duga rentgen apparati, EKG apparatlari, videoendobronxoskop, zamonaviy UTT apparatlari kabi eng so‘nggi tibbiy asbob-uskunalar bilan to‘liq jihozlangani yuqorida sanab o‘tilgan murakkab jarrohlik amaliyotlarini mahalliy darajada amalga oshirish imkonini yaratmoqda.



BEKOBODNING YANGI QIYOFASI

Joriy yil “9-may — Xotira va qadrlash kuni” bayrami arafasida muhtaram Yurtboshimizning tegishli topshiriqlariga binoan, o‘tganlarning aziz va muqaddas yodini yanada ulug‘lash, ularga bo‘lgan ehtiromni aks ettirish maqsadida “Yangi Bekobod” markaziy maydoni va Xotira xiyoboni majmuasi bunyod etilib, foydalanishga topshirildi.

Tumanimiz markazida joylashgan ushbu muhtasham maydon va ko‘rkam xiyobon, qaytadan o‘rnatilgan mo‘tabar siymo — Motamsaro ona haykali, mardlik lavhalari, xotira nuri, millat fidoyilari, mamlakatimizning mudofaa qudrati va chegaralarimiz mustahkamligi ramzlari aks etgan barelef, Bekobod tumanidan urushda ishtirok etgan bobolarimizning ism-sharifi bitilgan mangulik kitoblari, muazzam ustunlar va ayvonlar, tumanimiz tashkil topganining 100 yilligi munosabati bilan bunyod etilayotgan muzey, tinchlik va faxriftixor timsoli bo‘lgan muhtasham arka hamda yurtimiz mustaqilligining 35 yilligiga o‘ziga xos ramz bo‘lgan 35 metrlik serviqor bayrog‘imiz bilan buyuk tarix va Yangi O‘zbekiston tutashgan nuqta sifatida yaxlit manzara kasb etmoqda.

Ushbu muhtasham va ko‘rkam majmua, umuman, tuman aholisi uchun qulayliklar yaratish maqsadida qad ko‘tarayotgan barcha bunyodkorlik obyektlari muhtaram Prezidentimizning Bekobod tumaniga bo‘lgan e’tiborlari, mehr va g‘amxo‘rliklarining yaqqol ifodasidir.

Davomi 3-betda



Boshlanishi 1-, 2-betlarda

MA’RIFATGA ELTUVCHI ENG YAQIN YO‘L

Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, o‘quvchi-yoshlarning mutolaaga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning ma’naviy dunyoqarashi va tafakkurini boyitish, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda yosh avlod qalbida kitobga mehr uyg‘otish maqsadida tumanimizda 2025-yilda “Har maktabga – 100 kitob” tashabbusi doirasida 60 ta umumta’lim va 3 ta xususiy maktablarga 20 mingta eng zamonaviy adabiyot sovg‘a qilindi. Natijada tumandagi maktab kutubxona fondlari 111 ming nusxadan oshib, o‘quvchilar uchun kitob fondidan foydalanish imkoniyati yanada kengaydi.

Ushbu kitoblarni maktablarga topshirish tadbirlari chinakam ma’rifat bayramiga aylanib ketdi. Chunki ushbu tadbirlar doirasida tumanimizga 500 nafardan ziyod akademik olimlar, taniqli shoir va yozuvchilar, jurnalistlar va san’atkorlar tashrif buyurishdi. Ular bilan ijodiy uchrashuvlar, davra suhbatlari, kitob taqdimotlari hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etildi.

Kitobxonlik muhitini xonadonlarga olib kirayotgan yana bir muhim harakat – “Yosh kitobxon oila” tanlovi birgina 2025-yil mavsumida 100 mingga yaqin yosh oilani jalb etgani bizni benihoya xursand qiladi. Chunki oilalarda kitob o‘qilishi – jamiyatning yutug‘idir.

Muhtaram Prezidentimizning ezgu maqsadlari ham aslida shu, ya’ni har bir oila kitobga do‘st bo‘lsin, unib-o‘sib kelayotgan farzandlarimiz kitob bilan birga ulg‘aysinlar, deb ta’kidlaydilar hamisha.

Ana shunday kitobxon oilada unib-o‘sayotgan singlimiz, Bekobod tumanidagi 42-maktabning 7-sinf o‘quvchisi Suvonqulova Odinaxon “Kitobxon-Kids” respublika tanlovida faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Odinaning ushbu yutug‘i tumanda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda namuna bo‘ldi va uning xonadonida 5 000 ta kitobdan iborat kutubxona tashkil etib berildi. Endi 14 yoshli qizchamizning uyida o‘z shaxsiy kutubxonasi bor.

Yana bir gapni faxr bilan ayta olamizki, bugungi kunda tumanning Bosh maydonida Bekobod markaziy kutubxonasini barpo etish ishlari boshlangan. Ushbu barcha sharoitlarga ega bo‘lgan zamonaviy ziyo maskani Mustaqiligimizning 35 yillik bayrami arafasida foydalanishga topshiriladi. Bunday zamonaviy kutubxonalar tumandagi barcha 51 ta mahallalarda ham tashkil etiladi.

Bu ezgu ishlarning mantiqiy davomi sifatida, 18 – 21-may kunlari Bekobod tumani yurtimizdagi eng nufuzli ma’naviy-ma’rifiy tanlovlardan biri — “Yosh kitobxon” ko‘rik-tanlovining Respublika bosqichiga mezbonlik qildi.

Davlatimiz rahbarining besh muhim tashabbusi doirasida yoshlarni o‘zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini keng ommalashtirish maqsadida 2017-yildan buyon an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan “Yosh kitobxon” tanlovida o‘tgan davr mobaynida 5 million nafardan ortiq yoshlar qamrab olinib, yuz minglab o‘g‘il-qizlarning mutolaaga bo‘lgan qiziqishi ortdi. Ayniqsa, tanlov g‘oliblarining Prezident sovg‘asi — avtomobillar bilan taqdirlanayotgani, shuningdek, davlat mukofotlariga sazovor bo‘layotgani ushbu loyiha nufuzini yanada oshirmoqda.

Tanlovning 2025-yilgi mavsumida ham yurtimizning barcha hududlaridan 950 ming nafarga yaqin yoshlar ishtirok etdi. Saralash bosqichlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan 42 nafar finalchi 3 ta yosh toifasi — 10–14, 15–19 hamda 20–30 yosh yo‘nalishlarida o‘zaro bellashdilar. Respublika bosqichida ishtirokchilar “Badiiy asarlar bilimdoni”, “Tezkor savol-javob”, “Buyuk mutafakkir va adib”, “She’riyat” hamda “Kvest” kabi beshta shart asosida sinovdan o‘tkazildi.

Mazkur tanlovning yana bir muhim jihati shundaki, unda yoshlarning nafaqat o‘qigan asarlarini qay darajada o‘zlashtirgani, balki kitoblarda ilgari surilgan Vatanga muhabbat, oila va do‘stlarga sadoqat, komil inson fazilatlari haqidagi fikrlarga munosabati, mustaqil mushohada yuritish qobiliyatiga ham alohida e’tibor qaratiladi. Shu bois “Yosh kitobxon” tanlovi yoshlarni kitobxonlik orqali ma’naviy barkamollikka yetaklaydigan muhim maydon sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, final bosqichi Bekobod tumanida bo‘lib o‘tgan “Yosh kitobxon” tanlovi yoshlarning bilim va tafakkurini charxlash, ularni milliy hamda jahon adabiyotining sara namunalari bilan yaqindan tanishtirish, qalbida Vatanga muhabbat va ezgu insoniy fazilatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

ISHONCH, E’TIBOR VA YUKSALISH

Yoshlarning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish maqsadida Bekobod tumanida “Hokim kubogi” olimpiadasi tashkil etildi. Bekobod tumani hokimligi, “Ed-Ex school” ta’lim klasteri, tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi hamda tuman ixtisoslashtirilgan maktabi hamkorligida o‘tkazilgan olimpiada matematika, ingliz tili, IT, idiaton va zakovat yo‘nalishlarini qamrab olgan. Bunday keng qamrovli tanlovlar o‘quvchilarni yangi marralar sari undaydi, ularda mas’uliyat va o‘ziga ishonch tuyg‘usini kuchaytiradi. Ayniqsa, IT va idiaton yo‘nalishlarining kiritilgani yoshlarning innovatsion fikrlash va texnologik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zakovat bahslari esa keng dunyoqarash, tezkor mushohada va jamoaviy fikrlashni shakllantiradi.

Olimpiada natijalari ortida ustozlarning mehnati va ota-onalarning ishonchi mujassam. Shu bois bunday loyihalar nafaqat o‘quvchilar, balki pedagoglar uchun ham muhim tajriba maydoni hisoblanadi.

Ta’lim sohasidagi islohotlardan yana biri, joriy yilda Bekobod tumanida Olmaliq davlat texnika institutining filiali o‘z



faoliyatini boshlaydi va yangi o‘quv yilidan kamida 300 nafar talabani qabul qiladi.

O‘tgan yili qariyb 1,5 ming nafar yoshlar zamonaviy kasb va tillarga o‘qitilib, doimiy bandligi ta’minlandi. Ulardan 600 nafariga jami 1,8 milliard so‘m ko‘maklar ko‘rsatildi.

Bu yil yana 800 nafari kasblar va xorijiy tillarga o‘qitilib, “Yoshlar daftari”da turgan 680 nafariga 2,7 milliard so‘mlik ko‘maklar ko‘rsatiladi.

Agar o‘tgan yili yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish uchun 16,5 milliard so‘m imtiyozli kreditlar ajratilgan bo‘lsa, joriy yilda bu ko‘rsatkich yanada oshirilib, 22,5 milliard so‘mga yetkaziladi.

Joriy yilda 1,5 ming nafar ishsiz xotin-qizlar kasbga o‘qitilib, tumanda amalga oshirilayotgan loyihalarda 5200 nafar xotin-qizlar bandligi ta’minlanadi. Tadbirkorlik qilish istagidagi ehtiyojmand xotin-qizlarga 2,6 milliard so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratilishi belgilangan.

HAR BIR MUROJAAT ORTIDA INSON TAQDIRI MUJASSAM

Aholi farovonligini ta’minlashda fuqarolarning murojaatlarini o‘z vaqtida ko‘rib chiqish va ularning muammolariga adolatli yechim topish muhim o‘rin tutadi. Zero, har bir murojaat ortida inson taqdiri, uning orzu-intilishlari va hayotiy ehtiyojlari mujassam. Shu bois, mamlakatimizda murojaatlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, aholi bilan ochiq muloqotni kuchaytirish va mavjud muammolarni joyida hal etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash, nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalar, boquvchisini yo‘qotgan oilalar hamda kam ta’minlangan fuqarolarga manzilli ko‘mak berish borasidagi ishlar aholining turmush darajasini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Moddiy yordam va ijtimoiy xizmatlar ko‘lamining kengayishi inson manfaatlarini ta’minlashning muhim omiliga aylandi.

“Oqtepa” mahallasida istiqomat qiluvchi 74 yoshli nuroniy Mirzaqul ota Berdiqulov bu borada olib borilayotgan ishlarni o‘z yaqinlari misolida shunday ta’riflaydi: “Odami ersang demagil odami, onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami, — deydilar hazrat Alisher Navoiy bobomiz. Bekobod tuman Xalq qabulxonasiga yo‘llanayotgan murojaatlarning o‘z yechimini topayotganiga, xalqning uzog‘i yaqin, og‘iri yengil bo‘layotganiga shaxsan guvoh bo‘lmoqdaman”. Mirzaqul otaning ta’kidlashicha, “Pastkikerayit” mahallasida yashovchi, 1984-yilda tug‘ilgan Kamoliddin Xudoyqulovning sog‘lig‘i yomonlashgani sababli uning rafiqasi Nazira Xudoyqulova turmush o‘rtog‘ini davolatish uchun order olishda yordam so‘rab murojaat qilgan. Ushbu murojaat asosida fuqaroga zudlik bilan davolanish orderi rasmiylashtirilib, u Samarqand shahrida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi.

Bundan tashqari, Tuman tibbiyot birlashmasining malakali shifokorlari bemor holidan doimiy xabar olib turishibdi. K.Xudoyqulovga nogironlik aravachasi berilib, unga 1-guruh nogironligi belgilandi. Ko‘rsatilgan tizimli yordam natijasida bugungi kunda bemorning ahvoli ancha yaxshilangan, u yaqinlarining ko‘magisiz ham mustaqil harakatlana boshladi. Tabiiyki, bunday e’tibordan bemorning oila a’zolari cheksiz mamnun va davlatimizdan minnatdor.

Inson huquqlarini himoya qilish borasidagi navbatdagi xayrli ish esa Bekobod tumani hokimining sayyor qabulida o‘rtaga chiqdi. Unda Malika Normatovaning yaqin qarindoshlari ko‘p yillik muammo bilan murojaat qildi. Ma’lum bo‘lishicha, M.Normatova 1967-yildan buyon Bekobod tumanidagi “Bunyodkor” mahallasida yashab kelayotgan bo‘lsa-da, shu vaqtga qadar O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini ololmagan. Oqibatda u ijtimoiy nafaqalar, moddiy yordam hamda tegishli ijtimoiy-reabilitatsiya xizmatlari kabi ko‘plab qonuniy huquqlardan foydalana olmay kelayotgan edi.

Mazkur murojaat Bekobod tuman Adliya bo‘limi tomonidan atroflicha o‘rganildi. Jarayonda M.Normatovaning ushbu mahallada oilasi bilan uzoq yillardan beri yashayotganini tasdiqlovchi hujjatlar — 2025-yil 10-sentyabrdagi mahalla dalolatnomasi, Sobiq Ittifoq davrida (1968-yil 1-aprelda) berilgan tug‘ilganlik haqidagi akt yozuvi, 1986-yilgi eski pasport nusxasi va mehnat daftarchasi jamlandi. “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonunning tegishli moddalariga muvofiq, mamlakat hududida kamida 15 yil davomida doimiy yashab kelayotgan, chet davlat fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi deb tan olinishi belgilangan. Fuqarolikni tasdiqlovchi to‘g‘ridan to‘g‘ri hujjatlar bo‘lmagan taqdirda, ushbu holat sud tartibida aniqlanadi.

Shunga ko‘ra, Prezidentimizning PQ–3666-sonli qarori hamda Adliya vazirligi va Oliy sudning qo‘shma ko‘rsatmasiga asosan, tuman Adliya bo‘limi tomonidan fuqaro M.Normatova manfaatini ko‘zlab sudga ariza kiritildi. Fuqarolik ishlari bo‘yicha Bekobod tumanlararo sudi sudyasi R.Alimjanov ushbu ishni xolisona ko‘rib chiqib, arizani qanoatlantirdi. Endilikda M.Normatovaga O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik pasportini olish va barcha qonuniy imtiyozlardan to‘laqonli foydalanish imkoniyati yaratildi.

YUZLARDA TABASSUM, QALBLARDA MINNATDORLIK TUYG‘USI

Davlatimiz rahbarining yuksak e’tibor va g‘amxo‘rligi tufayli joriy yilgi haj mavsumida muqaddas Makka va Madina shaharlarida bo‘lib qaytgan “Prezident hojilari” ziyorat amallarini to‘liq ado etib, Vatanga sog‘-salomat qaytdilar. Ziyoratchilar haj safarining yuqori saviyada tashkil etilganini, o‘zlariga yaratilgan mukammal sharoitlar va doimiy g‘amxo‘rlik uchun davlat rahbariga chuqur minnatdorlik bildirdilar.

E’tiborli jihati, joriy yilda respublika bo‘yicha yuborilgan 100 nafar “Prezident hojilari” safida Toshkent viloyatidan 7 nafar vakil, jumladan, Bekobod tumani “Parchayuz” mahallasida yashovchi Mahbuba Turdibekova ham bor edi. Mahbuba opa o‘z taassurotlarini shunday o‘rtoqlashdi: “Muqaddas haj safariga borish har bir musulmonning ulug‘ orzusi. Bizga ana shu sharafli imkoniyatni yaratib bergan Prezidentimizdan behad minnatdorman. Safar davomida yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi va yurtboshimizning salomatligi uchun duolar qildik. Bunday yuksak e’tiborni umrbod unutmaymiz”.

Aholi farovonligini ta’minlash borasidagi ezgu ishlar faqat moddiy yordam ko‘rsatish bilan cheklanmay, alohida e’tiborga muhtoj bolajonlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularni jamiyatning faol a’zolariga aylantirishni ham qamrab olmoqda. Xususan, Bekobod tumanida davlat-xususiy sheriklik asosida nogironligi bo‘lgan bolalar uchun kunduzgi parvarish xizmatining yo‘lga qo‘yilishi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Tadbirkor Durdona Abdumutaliyeva tomonidan tashkil etilgan “Mehr nuri” MCHJ negizidagi ushbu maskanda bugungi kunda 3 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan 18 nafar imkoniyati cheklangan bola cheksiz mehr va g‘amxo‘rlik og‘ushida tarbiyalanmoqda. 36 o‘ringa mo‘ljallangan ushbu muassasaga yaqin kunlarda yana 6 nafar bolajon qabul qilinishi rejalashtirilgan.

Markazda bolajonlarning jismoniy faolligini oshirish, ularning tengdoshlari bilan muloqotga kirishish qobiliyatini rivojlantirish uchun muntazam ravishda chiniqtirish mashg‘ulotlari va ijtimoiy-pedagogik tadbirlar olib borilmoqda. Tizimli g‘amxo‘rlik natijasida ko‘plab bolajonlar hayotida ijobiy o‘zgarishlar ko‘zga tashlanmoqda: ilgari mustaqil harakatlana olmagan ayrim bolalar endilikda mustaqil tik turish va ilk qadamlarini bosish ko‘nikmalarini egallamoqda.

Bu maskan nafaqat bolalar, balki ularning onalari uchun ham ulkan ko‘mak va kuch-quvvat manbaiga aylandi. Masalan, Zuhra Donoboyeva BSF tashxisli farzandini ushbu markazga olib kelib, undagi ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rgach, o‘zi ham shu yerda ish faoliyatini boshladi. U bir vaqtning o‘zida ham farzandining tarbiyasi bilan yaqindan mashg‘ul bo‘lish, ham mehnat qilib jamiyatga naf keltirish imkoniga ega bo‘lganidan mamnunligini yashirmaydi. Bu kabi mehr-muruvvat maskanlari alohida ehtiyojli bolalarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida, ota-onalarning esa ruhini ko‘tarib, ularning ijtimoiy faolligini oshirishda beqiyos ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa o‘rnida aytganda, Bekobod tumanida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari, ta’lim, tibbiyot, ijtimoiy himoya va aholi murojaatlari bilan tizimli ishlash borasidagi islohotlar yagona bir ezgu maqsadga — inson manfaatlarini ta’minlash va xalq farovonligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Zamonaviy maktablar, yangi ko‘priklar, ehtiyojmand fuqarolar va bolajonlarga ko‘rsatilayotgan cheksiz g‘amxo‘rliklar Yangi O‘zbekistonda inson qadri eng oliy mezon ekanligining amaliy tasdig‘idir.

Zero, har bir loyiha va har bir xayrli tashabbus ortida odamlarning hayotdan rozi bo‘lib yashashi, ertangi kunga bo‘lgan ishonchi hamda farzandlarining baxtli kelajagi mujassamdir. Bekoboddagi bu ijobiy o‘zgarishlar “Bosh maqsadimiz — hamma va har bir inson farovonligini ta’minlash” degan ulug‘ g‘oyaning hayotdagi yorqin in’ikosidir.

Sarvinoz SHERALIYEVA,
bosh muharrir

G‘alla – 2026

MEHNAT VA DAM OLISH SHAROITLARI O‘RGANILDI



Bekobod tumanida 2026-yil g‘alla o‘rim-yig‘im mavsumini uyushqoqlik bilan o‘tkazish, dala mehnatkashlari uchun munosib mehnat va dam olish sharoitlarini yaratish maqsadida joylarda muntazam monitoring ishlari olib borilmoqda.

Jumladan, Bekobod tuman Nuroniylar jamg‘armasi raisi, tuman Nuroniylar ishchi guruhi raisi J.Bo‘rixo‘jayev boshchiligidagi ishchi guruh a’zolari – faol nuroniylar, sobiq jamoa xo‘jaligi raisi A.Abdujabborov hamda F.Dehqonovlar ishtirokida “Do‘stlik” MFY hududida joylashgan “Azamat Samandar Fayz” fermer xo‘jaligida o‘rganish ishlari olib borildi.

O‘rganish davomida mexanizatorlar, kombaynchilar va boshqa ishtirokchilar uchun dam olish joylari, ovqat tayyorlash maskanlari, sanitariya holati hamda issiq ovqat bilan ta’minlash ishlari atroflicha nazoratdan o‘tkazildi.

Tekshiruv natijalariga ko‘ra, fermer xo‘jaligi tomonidan g‘alla o‘rim-yig‘imida ishtirok etayotgan barcha mehnatkashlar uchun zarur sharoitlar yaratilgani, mehnat muhofazasi va xavfsizlik talablariga amal qilinayotgani qayd etildi. Nazorat jarayonida hech qanday ko‘ngilsiz holatlar yoki kamchiliklar aniqlanmadi.

Bekobod tumanida g‘alla hosilini nes-nobud qilmasdan yig‘ib olish, dala mehnatkashlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ular uchun munosib sharoitlar yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Jalolxo‘ja BO‘RIXO‘JAYEV,
Nuroniylar jamg‘armasi raisi

Jahon chempionati – 2026

34 YILLIK ORZU RO‘YOBI VA BEKOBOD FARZANDI DOSTONBEK HAMDAMOV



Hech kimga sir emaski, xalq tilida hanuzgacha – Stretenko deb ataladigan mo‘jazgina qishlog‘im bugunga qadar Vatan ravnaqi uchun xizmat qilgan ko‘plab insonlarni voyaga yetkazgan qutlug‘ zamin hisoblanadi. Xususan, qishlog‘imizning obodligi, aholi turmush farovonligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga munosib hissa qo‘shgan, tibbiyot, ta’lim va adabiyot sohalarida o‘zlaridan o‘chmas iz qoldirgan hamqishloqlarimiz Abduqodir Shukuraliyev, Sangin Pochchaumarov, Mirzo Tojiyev, Isoxon Zokirov, Mahmudjon Kamoliddinov va Hamdam Umarov kabi fidoyi insonlarni hurmat bilan eslaymiz.

Bugun esa ota-bobolarimizning sharafli an’analarini davom ettirayotgan yoshlarimiz bilan faxrlanamiz. Mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan yuksak e’tibor va yaratilayotgan keng imkoniyatlar tufayli ular ilm-fan, adabiyot, san’at, sport hamda zamonaviy sohalarda yuksak natijalarga erishib, nafaqat qishlog‘imiz, balki butun Vatanimiz sha’nini dunyoga tanitmoqda.

Ayni kunlarda butun xalqimiz qalbini o‘zgacha hayajon va quvonch tuyg‘ulari qamrab olgan. Buning sababi – O‘zbekiston milliy terma jamoasining tarixda ilk bor futbol bo‘yicha jahon chempionatiga yo‘llanma olganidir. Bu nafaqat sportdagi ulkan yutuq, balki xalqimizning 34 yillik orzu-umidlari ro‘yobga chiqqan tarixiy voqeadir.

2025-yil 5-iyun kuni Birlashgan Arab Amirliklari terma jamoasiga qarshi kechgan uchrashuvdan so‘ng O‘zbekiston milliy terma jamoasi o‘z tarixida ilk bor jahon chempionati final bosqichi yo‘llanmasini qo‘lga kiritdi. Shu tariqa mamlakatimiz Markaziy Osiyoda mundialga yo‘l olgan ilk davlat sifatida tarix sahifalariga muhrlandi.

Mutaxassislar ta’kidlaganidek, katta sport natijalari tizimli tayyorgarlik, zamonaviy infratuzilma, bolalar sporti va xalqaro tajriba uyg‘unligi natijasida qo‘lga kiritiladi. O‘zbekistonning jahon chempionatiga chiqishi ham aynan shu omillarning samarasi bo‘ldi. So‘nggi yillarda yoshlar terma jamoalarining muvaffaqiyatlari, futbol akademiyalarining faoliyati va sohaga yo‘naltirilgan investitsiyalar o‘z natijasini bera boshladi.

“Futbol – millionlar o‘yini”, degan ibora bejiz aytilmagan. Bekobod tumanida ham mustaqillik yillarida, ayniqsa, so‘nggi o‘n yillikda iste’dodli futbolchilar kamol topdi. Tumandoshimiz Javlonbek Mirabdullayevning xalqaro maydonlarda Vatanimiz sharafini munosib himoya qilgani barchamizni quvontirgan edi. Bugun esa yana bir bekobodlik futbolchi – Dostonbek Hamdamovning jahon chempionati ishtirokchilari safidan o‘rin olgani tumandoshlarimiz qalbini faxr va iftixorga to‘ldirmoqda.

Bekobod zaminining munosib farzandi Dostonbek Hamdamov o‘zining texnik mahorati, maydonni teran his etishi va jamoaviy o‘yinga sodiqligi bilan muxlislar e’tiborini qozongan futbolchilardan biridir. U yoshligidanoq o‘zbek futbolining istiqbolli iste’dodlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Milliy terma jamoa safidagi mehnati, sabri va matonati bugun o‘z samarasini bermoqda.

Bugungi terma jamoamiz safida Abduqodir Husanov, Abbosbek Fayzullayev, Eldor Shomurodov, Jaloliddin Masharipov va Oston O‘runov kabi iqtidorli futbolchilar ham bor. Ular xalqaro maydonlarda O‘zbekiston bayrog‘ini yuksaklarga ko‘tarib, mamlakatimiz nufuzini oshirmoqda.

Jahon chempionatida O‘zbekiston bayrog‘ining hilpirashi – bu millionlab yurtdoshlarimizning quvonchi, faxri va ertangi kunga bo‘lgan ishonchining ramzidir. Bu yutuq Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘li, xalqimizning irodasi va necha avlod futbolchilarining fidokorona mehnati natijasidir.

Ayniqsa, Bekobod farzandi Dostonbek Hamdamovning ushbu tarixiy safarda ishtirok etayotgani barchamiz uchun ikki karra faxrdir. Uning bugungi muvaffaqiyati ertaga yuzlab bekobodlik yoshlar uchun ilhom va ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi. Chunki tarixni faqat g‘oliblar emas, balki orzu qilishdan va maqsad sari intilishdan to‘xtamagan insonlar yaratadi. Bugun Yangi O‘zbekiston yoshlari ana shunday avlod vakillari ekanini butun dunyoga namoyon etmoqda.

Mirzabek SHERBEKOV

Munosabat

YOSHLAR QALBIGA YO‘L TOPGAN TASHABBUS



Biz, yoshlar, “Prezident tashabbusi: qalblarga muhrlangan ma’naviy imzo” nomli maqolani katta qiziqish va mamnuniyat bilan o‘qib chiqdik. Mazkur maqolada Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan ma’rifatparvarlik g‘oyalari, yoshlarning bilim olishga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish hamda yosh avlodning ma’naviy kamolotiga qaratilayotgan yuksak e’tibor ta’sirchan va mazmunli tarzda yoritilgan.

Bugungi kunda dunyo shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda yoshlarning bilimli, keng dunyoqarashga ega va mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida voyaga yetishi har qachongidan ham muhimdir. Shu ma’noda maqolada tilga olingan “Yosh kitobxon” tanlovi va kitobxonlikni targ‘ib etishga qaratilgan tashabbuslar biz yoshlar uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Kitob insonni tafakkurga, izlanishga va ezgulikka yetaklaydi. Kitob bilan oshno bo‘lgan yoshlarning kelajagi porloq, maqsadlari aniq, qadamlari esa dadil bo‘ladi. Shu bois kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgan har bir tashabbus yoshlarning ma’naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Maqolada yutuqlarga erishgan yoshlarning hayoti va muvaffaqiyatlari haqida keltirilgan misollar bizni yanada ruhlantirdi. Ularning mehnatsevarligi, intilishi va bilimga bo‘lgan chanqoqligi har bir yosh uchun ibrat maktabidir. Bunday tanlovlar nafaqat bilimlarni sinovdan o‘tkazadi, balki yoshlarni o‘z ustida muntazam ishlashga, yangi marralarni zabt etishga undaydi.

Ayniqsa, kitobxonlik orqali yoshlar qalbida milliy qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga muhabbat va kelajakka ishonch tuyg‘ulari yanada mustahkamlanadi. Bu esa komil insonni tarbiyalashning eng muhim omillaridan biridir.


Prezidentimiz tomonidan yoshlar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar, ta’lim va ma’rifatga qaratilayotgan e’tibor bizga katta mas’uliyat yuklaydi. Biz ushbu imkoniyatlardan unumli foydalanib, bilim olish, kasb-hunar egallash hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz. Chunki Yangi O‘zbekistonning ertangi kuni aynan bugungi yoshlarning bilimi, tafakkuri va fidoyiligiga bog‘liq.

Maqola bizda katta taassurot qoldirdi. Unda ilgari surilgan g‘oyalar har bir yoshning qalbida ma’naviy uyg‘onish, ilmga muhabbat va ezgu maqsadlar sari intilish hissini uyg‘otadi. Biz yoshlar Prezidentimizning yuksak ishonchini oqlash, kitobxonlikni hayotimizning ajralmas qismiga aylantirish hamda Vatanimiz ravnaqi yo‘lida sidqidildan xizmat qilishga doimo tayyormiz.

Dilshoda SAIDOVA,
Bekobod tumani Yoshlar ishlari bo‘limi boshlig‘i,
Bekobod tumani Xalq deputatlari Kengashi deputati

Bilasizmi?!

MATEMATIKLAR 50 MING DOLLARGACHA MUKOFOTLANADI



Matematika sohasida fundamental va amaliy-ilmiy izlanishlar natijalariga ko‘ra, amaliyotdagi muayyan muammoning yechimini taklif etgan olimlar Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro mukofot bilan yakka tartibda taqdirlanadi.

Mukofot 50 ming AQSH dollari ekvivalentidagi bir martalik puldan iborat bo‘lib, 2 yilda bir marta Prezident tomonidan Fan va texnologiyalar bo‘yicha respublika kengashining taklifiga ko‘ra quyidagi 3 ta yo‘nalish bo‘yicha beriladi:

- fundamental sohadagi tadqiqot;
- yoshlar o‘rtasidagi tadqiqot;
- iqtisodiyotning real sektoridagi muammoning yechimini ta’minlagan tadqiqot.

Mohira ARZIQULOVA,
Bekobod tumani Adliya bo‘limi Davlat xizmatlari markazi bosh mutaxassisi

Bu muhim!

SOMON QOLDIQLARI YONGANDA

Rizq-u ro‘zimiz bo‘lgan boshoqli don ekinlarini yig‘ib olish mavsumi boshlandi. Afsuski, mavsumda ayrim dehqonlar va fuqarolarning g‘alladan bo‘shagan maydonlarda somon qoldiqlari va turli chiqindilarni yoqib yuborayotgani aniqlanmoqda.

Bunday ekologik muammoga sabab bo‘layotgan shaxslar maydonlarni takroriy ekin ekishga tayyorlash, yerlarni tezroq haydash uchun bo‘shatish maqsadida shunday yo‘l tutayotgan bo‘lishlari mumkin. Biroq ular bu kabi xatti-harakatlar juda katta salbiy oqibatlarga olib kelishini anglab yetishlari zarur.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi: yerni ekishga tayyorlash uchun somon qoldiqlarini yoqish shartmi?

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, somonning yonishi natijasida tuproqning unumdor ustki qatlami zarar ko‘radi, yer 20 santimetr chuqurlikkacha qizib ketadi va tuproqning tabiiy xususiyatlari izdan chiqadi. Natijada yerning “bepul xizmatkorlari” hisoblangan chuvalchanglar va boshqa foydali mikroorganizmlar nobud bo‘ladi.

Eng achinarli tomoni shundaki, somon yoqilishi atrofdagi o‘simlik va hayvonot dunyosiga ham katta zarar yetkazadi. Jumladan, tut daraxtlari, foydali hasharotlar, sudralib yuruvchilar, toshbaqalar, ilonlar, qushlar va ularning inlari zararlanadi. Bu esa ekologik muvozanatning buzilishiga olib keladi.

Bundan tashqari, somonga qo‘shilib dalalarda sochilib yotgan polietilen plyonka qoldiqlari, plastik idishlar va boshqa maishiy chiqindilar ham yonadi. Ularning yonishi oqibatida atmosferaga kanserogen va zaharli moddalar ajralib chiqadi. Ushbu moddalar nafaqat atrof-muhitga, balki inson salomatligiga ham jiddiy xavf tug‘diradi.

Shu sababli somon qoldiqlarini yoqishdan voz kechish, yerlarni zamonaviy agrotexnik usullar asosida tayyorlash va tabiatni asrash har birimizning muhim vazifamizdir. Zero, sog‘lom ekologik muhit — kelajak avlodlarga qoldiradigan eng katta boyligimizdir.

Zoir XURRAMOV,
Bekobod tumani FVB boshlig‘ining o‘rinbosari,
Profilaktika va nazorat
bo‘linmasi boshlig‘i, mayor

BEKOBOD SHAROITIDA KO‘SAK QURTIGA QARSHI SAMARALI KURASH



Bekobod tumani Toshkent viloyatining janubiy qismida joylashgan bo‘lib, issiq va quruq iqlimi hamda kuchli shamollari bilan ajralib turadi. Bunday sharoit g‘o‘za yetishtirish uchun qulay bo‘lishi bilan birga, uning asosiy zararkunandalaridan biri — ko‘sak qurti (Helicoverpa armigera)ning ko‘payishiga ham imkon yaratadi.

Ko‘sak qurti g‘o‘zaning shona, gul va ko‘saklarini zararlab, hosildorlikni 40–60 foizgacha kamaytirishi, ayrim hollarda esa hosilning katta qismini nobud qilishi mumkin. Shu bois unga qarshi ilmiy asoslangan va tizimli kurash choralarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Kapalaklar tuxumlarini yosh barglar, shonalar va gullarga qo‘yadi. Tuxumdan chiqqan qurtlar dastlab barg va shonalar bilan oziqlanib, keyinchalik ko‘sak ichiga kirib, hosilga jiddiy zarar yetkazadi.

Mutaxassislar faqat kimyoviy vositalardan foydalanish kutilgan natijani bermasligini, aksincha, zararkunandalarda preparatlarga nisbatan chidamlilik paydo bo‘lishini ta’kidlaydi. Shu sababli uyg‘unlashgan himoya tizimi (IPM)ni qo‘llash tavsiya etiladi.

Ko‘sak qurtiga qarshi kurashda agrotexnik tadbirlar alohida o‘rin tutadi. Kuzgi chuqur shudgorlash tuproqda qishlayotgan g‘umbaklarning katta qismini nobud qiladi. Qishki va erta bahorgi yaxob suvlari ham ularni kamaytiradi. Shuningdek, qator oralari ishlovi va begona o‘tlarni muntazam yo‘qotish zararkunandaning rivojlanish manbalarini qisqartiradi.

Zararkunanda sonini nazorat qilishda feromon tutilgichlar samarali vosita hisoblanadi. Har 1–2 gektar maydonga bitta tutilgich o‘rnatilib, kapalaklar soni kuzatib boriladi. Ularning soni me’yoridan oshganda biologik kurash choralarini boshlash tavsiya etiladi.

Bekobodning issiq iqlim sharoitida biofabrika mahsulotlaridan foydalanish yuqori samara beradi. Trixogramma ko‘sak qurtining tuxumlarini zararlab, ularning rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaydi. Brakon esa qurtlarni falajlab, ularning ko‘saklarga kirib, zarar yetkazishining oldini oladi. Ushbu biologik vositalardan o‘z vaqtida va me’yor asosida foydalanish kimyoviy preparatlarga bo‘lgan ehtiyojni sezilarli darajada kamaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, ko‘sak qurtiga qarshi kurashda agrotexnik, biologik va monitoring tadbirlarini uyg‘un holda qo‘llash yuqori hosil olish hamda ekologik xavfsizlikni ta’minlashning eng samarali yo‘lidir.

Tursunali ERNAZAROV,
Hasan DAVLATOV,
Otabek ABDUVALIYEV,
O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi Toshkent viloyati Bekobod tumani bo‘limi Fitosanitar nazorati davlat inspektorlari

POMIDOR BARGLARI NEGA BURALADI?

Mutaxassis maslahati



Pomidor yetishtirishda barglarning buralishi eng ko‘p uchraydigan muammolardan biri bo‘lib, buralib qolish o‘simlikda yuzaga kelgan stress, oziqa moddalari yetishmovchiligi, noto‘g‘ri sug‘orish, zararkunandalar yoki kasalliklar ta’siri natijasida yuzaga keladi. Muammoni erta aniqlash va o‘z vaqtida chora ko‘rish hosilni saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega.

Barglarning buralishiga, eng avvalo, sug‘orishdagi xatolar sabab bo‘lishi mumkin. Tuproqning uzoq vaqt quruq qolishi yoki aksincha, ortiqcha namlik ildiz tizimi faoliyatini izdan chiqaradi. Natijada barglar ichkariga yoki yuqoriga qarab buraladi.

Kuchli issiq va qurg‘oqchilik sharoitida o‘simlik namlik yo‘qotilishini kamaytirish maqsadida barg yuzasini kichraytirishga harakat qiladi. Shu bois barglar naychasimon shaklga kirib buralishi mumkin.

Oziqa moddalari tanqisligi ham muhim omillardan biridir. Ayniqsa, kaliy, magniy va kalsiy yetishmovchiligi barglarning deformatsiyalanishi, sarg‘ayishi va buralishiga olib keladi. Azotli o‘g‘itlarning me’yoridan ortiq qo‘llanishi ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday holatda o‘simlik haddan tashqari yashil massa hosil qilib, barglar qalinlashadi va ichkariga yoki pastga qarab buraladi.

Shira, oqqanot va o‘rgimchakkana kabi zararkunandalar barg shirasi bilan oziqlanib, o‘simlikni zaiflashtiradi. Natijada barglar qiyshayadi, buraladi va o‘sish jarayoni sekinlashadi.

Ayrim virusli kasalliklar ham barglarning buralishiga sabab bo‘ladi. Virus bilan zararlangan o‘simliklarda barglar maydalashadi, shakli buziladi va hosildorlik keskin pasayadi.

Bundan tashqari, ko‘chatlarni ko‘chirib o‘tqazish, ortiqcha butash yoki ildizlarning shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan stress holati ham barglarning vaqtinchalik buralishiga olib kelishi mumkin.

Muammoning oldini olish uchun sug‘orishni me’yorida tashkil etish, o‘simliklarni muvozanatli oziqlantirish, zararkunandalarga qarshi muntazam kurash olib borish hamda kuchli issiqdan himoya qilish tavsiya etiladi. Barglarning buralishi kuzatilganda esa sabab to‘g‘ri aniqlanib, o‘z vaqtida zarur choralar ko‘rilsa, o‘simlik tez tiklanadi va mo‘l hamda sifatli hosil berishda davom etadi.

Faxriddin SHAKIROV,
Alisher AMANXO‘JAYEV,
Shohruh ESHBOYEV,
Farruh ASQAROV,
“Oybek” O‘KCHM inspektorlari

MUZQAYMOQ ISTE’MOL QILISHDA E’TIBORLI BO‘LING!

Muzqaymoq tabiiy sut, qaymoq, quyultirilgan yoki quruq sut, lavlagi shakari, ta’m va hid beruvchi moddalar (kakao, bodom, kishmish, vanilin, yong‘oq va boshqalar), stabilizatorlar (agar-agar, jelatin) hamda havo aralashmasidan iborat mahsulot hisoblanadi.

Ushbu aralashma maxsus apparatlar — frezerlar yoki muzqaymoq sexlarida muzlatilib ko‘pchitiladi. Tayyorlash jarayonida mahsulot tarkibiga havo kirishi hisobiga uning hajmi 1,8–2 barobar ortadi. Hajm qanchalik ko‘p ko‘pchisa, muzqaymoq sifati shunchalik yuqori bo‘ladi.

Muzqaymoqning harorati muzlatgichlarda odatda -14–15°C gacha pasaytiriladi. Tarkibiga ko‘ra u uch asosiy turga bo‘linadi: sutli, qaymoqli va plombir. Sutli muzqaymoqda yog‘ miqdori 3,5 foiz atrofida, qaymoqli muzqaymoqda 10 foizgacha, plombirda esa 15 foizgacha bo‘ladi.

Oddiy muzqaymoqlardan tashqari yumshoq muzqaymoq ham ishlab chiqarilmoqda. U ko‘proq kafe va restoranlarda, maxsus frezerlar yordamida tayyorlanadi. Bunday muzqaymoqning harorati nisbatan yuqori — -5–7°C bo‘lib, tayyorlash jarayoni tez va qulaydir.



Muzqaymoqning ozuqaviy qiymati ham yuqori bo‘lib, tarkibida oqsil, yog‘, kalsiy va fosfor mavjud. 100 gramm muzqaymoqda o‘rtacha 150 mg kalsiy va 100 mg fosfor bo‘ladi. Bu moddalarning muvozanati bolalar va o‘smirlar uchun, ayniqsa, foydali hisoblanadi.

Biroq ishlab chiqarish va saqlash jarayonida sanitariya qoidalariga rioya etilmasa, muzqaymoq bakteriyalar bilan ifloslanishi mumkin. Shu sababli harorat rejimi, gigiyena talablari va ishlab chiqarish jarayonining tozaligiga qat’iy amal qilish talab etiladi.

Temur UMAROV,
Bekobod tuman Sanepid bo‘limi boshlig‘i

Ranglar tilga kirganda

YOSH MUSAVVIRLAR IJODIDAN

Bolalar ijodi — beg‘ubor tasavvur, cheksiz orzu va yorqin kelajakning aksidir. Ularning mo‘yqalam orqali yaratgan har bir asari qalbidagi go‘zallik, tabiatga mehr va hayotga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Ranglar uyg‘unligida namoyon bo‘layotgan ushbu ijodiy ishlar yosh avlodning estetik didi, kuzatuvchanligi va badiiy tafakkuri shakllanib borayotganidan dalolat beradi.

Bekobod tumani 46-umumta’lim maktabining tasviriy san’at fani o‘qituvchisi Saydinova Maftuna rahbarligida ijod qilayotgan o‘quvchilarning quyidagi ishlari ularning iste’dodi va mehnatsevarligining yorqin namunasi hisoblanadi. Har bir rasmda bolalarga xos samimiyat, rang-barang tasavvur va go‘zallikka intilish mujassam bo‘lib, gazetxonni ezgu tuyg‘ular olamiga chorlaydi.


TAHRIRIYAT



E’zoza ALIMJONOVA,
Bekobod tumani 46-umumta’lim maktabining
6-“B” sinf o‘quvchisi



Niginaxon SAIDQULOVA,
Bekobod tumani 46-umumta’lim maktabining
5-“A” sinf o‘quvchisi



Muborak NARZULLAYEVA,
Bekobod tumani 46-umumta’lim maktabining
5-“A” sinf o‘quvchisi

Bu qiziq!

2026-YILDA TRENDDA BO‘LADIGAN BOLALAR KITOBLARI:

Natalya Shaloshvilining “Mushukchaga nima kerak?” kitobi. Bu muallifning 2024-yilda chop etilgan “Miss Leopard” kitobi mazmuni va mashhurligidan kelib chiqib, mushukcha haqidagi kitobni aniq trend bo‘ladi deb hisoblashibdi.

Richard Xoning “Tog‘larni siljita olasan” kitobi. Unda rassom Bob Rossning hayoti badiiy tasvirda berilar ekan. Nomining o‘ziyoq yoqdi, qiziqdim.

Jashar Avanning “Loops” ya’ni “doira, halqa” nomli kitobi. Unda bolalar bu shaklning tabiatda, hayotimizda qanday ko‘rinishlarda uchrashi mumkinligini qiziqarli tarzda o‘rganishadi.

Nikolas Deyning “Qanday qilib fikr yuritish kerak: Charlz Darvin bilan sayr” kitobini kiritishibdi. Kitob mazmuni bilan tanish emasligim uchun hozircha uni tavsiya qila olish, olmasligimni bilmayapman. Tekshirib ko‘rish kerak ekan bir.

Zoey Abbott va Avgust Vagnerning “Zombi qanday chiziladi” kitobi. Kitob bolalarni rasm chizishga ilhomlantirar ekan. Biz odatlanmagan mavzu a? Lekin Oynur uchun qiziqarli kitob ekan. Qizcham zombilarga rostakam qiziqadi.

Noemi Volaning “Yo‘q, Yo‘q, Yo‘q” kitobi. Unga “yo‘q”ning chegaralari va “ha”ning imkoniyatlari haqidagi kuchli hikoya deb ta’rif berishibdi. Qiziqtirib qo‘ydi.

Erik Darnell Pritchardning “Sizni tabassum qildiradigan kiyimlar” kitobi moda haqida ekan. Muallifning o‘zi ham moda mutaxassisi. Bolalar adabiyotidagi kamnamo va kerakli mavzu ekan a?

@BIYRON_CHA



Rahima ABDUAHADOVA,
Bekobod tumani 46-umumta’lim maktabining
5-“A” sinf o‘quvchisi



Diyora ABDULAZIZOVA,
Bekobod tumani 46-umumta’lim maktabining
6-“A” sinf o‘quvchisi

Bolalar adabiyoti



KUTILMAGAN SOVG‘A

Qarg‘a zo‘rg‘a topgan yong‘og‘ini tumshug‘i orasidan tushirib yubordi. Yerga qo‘nib izladi, oyoqlari bilan tuproqni titdi. Qancha izlamasin yong‘oqni topolmadi. Kelasi yili u shu yerdan uchib o‘tayotib bir daraxtga ko‘zi tushdi.

- Hoy daraxt, sen qayerdan kelib qolding. Avval yo‘q eding-ku? - dedi ajablanib.

Daraxt kulib javob berdi:

- Nahotki tanimagan bo‘lsang? Esingdami, o‘tgan yili tumshug‘ingdan tushirib yuborganing. Keyin oyoqlaring bilan tuproq ostiga ko‘mganding. Men o‘sha yong‘oqman.

- Rostanmi? Men seni ko‘mmagandim, aksincha rosa izlagandim.

- Kel yaxshisi ikkimiz do‘st bo‘lamiz. Sen meni parvarishlaysan, men esa har yili ko‘pgina hosilim bilan siylayman.

Qarg‘a xursand bo‘lib, kichkina nihol tagini tumshug‘i bilan yumshatdi. Og‘zida suv olib kelib parvarishlay boshladi. Nihol va’dasida turdi. Bir necha yildan so‘ng o‘zining yong‘oqlari bilan qarg‘alarni siyladi.

MEHNATKASH CHUVALCHANG

Yomg‘irdan so‘ng ekinlar arig‘ida chuvalchanglar paydo bo‘ldi. Pomidor uni biror hashorat deb o‘ylab qo‘rqdi.

- Hoy zararkunanda, bizni yonimizda nima bor senga? Bor ket.

Chuvalchangga pomidorning “zararkunanda” degani yoqmadi.

- Hecham zararkunanda emasman. Haydamasang ham hozir yer osti uyimga kirib ketaman. Biroz atrofni tomosha qilgani chiqqandim.

- Yer tagida yashaysanmi? - deya ishonqiramay so‘radi pomidor. Keyin chuvalchangning javobini ham kutmay o‘zini maqtay boshladi.

- Masalan, men vitaminga judayam boyman. Hamma meni suyib tanovul qiladi.


Chuvalchang uzun cho‘zilgan tanasini yig‘ib ketishga tayyorlanarkan: - Yer tagida yashasam ham bekor o‘tirmayman. Ekinlar yaxshi o‘sishi uchun tuproqni yumshataman. Tuproqni havo bilan boyishiga yordam beraman, - dedi sekingina.

- Unda sen tuproq bilan oziqlanar ekansan-da,- ajablandi pomidor.

- Yo‘q, men to‘kilgan barg, meva qoldiqlari bilan oziqlanaman.

Pomidor yashnab o‘sayotganida chuvalchangning mehnati kattaligini bilib, uni ranjitib qo‘yganidan afsuslandi.

- Meni kechir. Seni bilmay xafa qilib qo‘ydim,- deya undan uzr so‘radi.



ULOQCHA VA QO‘NG‘IROQCHA

O‘tloqda chopib yurgan uloqcha birdan joyida to‘xtadi. Qayerdandir unikiga o‘xshash qo‘ng‘iroq ovozi eshitilardi. Biroz quloq tutdi. Ovoz tuyoqlari ostidan kelayotgandi.

- Hoy, qayerdasan. Qanisan?- deya cho‘kkalab, atrofga alanglay boshladi.

Shu payt tumshug‘i ostidan mayin ovoz keldi.

- Mana yoningda turibman-u,- dedi jag‘-jag‘ o‘t qo‘ng‘iroqchalarini shildiratib.

Uloqcha yashil qo‘ng‘iroqchalarni ko‘rib hayratini yashira olmadi.



- Voy-bo‘y, buncha qo‘ng‘iroqchang ko‘p. Buni ustiga biram yoqimli jaranglarkan.

- Istasang senga kuylab beraman,- dedi jag‘-jag‘ o‘t maqtovdan quvonib.

- Istayman, - deya uloqcha unga qulog‘ini tutdi.

Jag‘-jag‘ o‘t shamolga hamohang kuylay boshladi. Kuy butun adirga yoyildi.

Endi uloqcha har kuni adirga kelar, yangrayotgan kuyga dikirlab raqsga tushardi.



QUYOSHGUL

Bahor keldi. Yer yuzini yam-yashil maysalar qopladi. Otquloq atrofini o‘rab olgan sap-sariq qoqigullarni ko‘rib quvonib ketdi. Ikkisi do‘st tutindi. Ular uzoq suhbatlashishdi. Biroq kech tushishi bilan qoqigul ko‘zlarini yumib oldi. Buni ko‘rgan otquloq hayron bo‘ldi.

- Nega ko‘zlaringni yumib olding. Qorong‘ilikdan qo‘rqasanmi?

- Yo‘q qo‘rqmayman,- dedi qoqigul. - Tunda biroz uxlab dam olaman. Biroq, tong otib quyoshni ko‘rmaguncha ko‘zlarimni ocholmayman.

- Seni quyoshga o‘xshashing sirini bilib oldim. Quyoshgul ekansan-da.

- Ha, shunday,- dedi qoqigul.

Otquloq endi har kuni quyosh chiqishini intiqib kutadigan bo‘ldi. U o‘ziga ajoyib do‘st topganidan xursand edi.

KAPALAK

Rangdor kapalakcha gulzorda onasi bilan sayr qilardi. Bexosdan osmonda o‘ziga o‘xshash, ammo judayam katta kapalakka ko‘zi tushdi.

- Oyijon, huuv tepaga qarang. Xuddi bizga o‘xshagan kapalak bor ekan. Biroq, u judayam katta. Ona kapalak bolasi ko‘rsatgan tomonga qaradi. Keyin kulib javob berdi.

- U kapalak emas, kamalak.

- Kamalak, - ko‘zlarini kattaroq ochdi kapalakcha.

- Ha kamalak. U bahorda, yomg‘irdan so‘ng ko‘rinadi.

Kapalakcha bir gapni takrorlagancha gulzorda raqs tusha boshladi.

- Oyijon, kiyimimiz bir xil, ammo bitta harf bilan nomimiz farq qilar ekan.

Kapalak – kamalak,

Kamalak – kapalak!

Muhayyo O‘ROQOVA



Xotira

SHOIRNI ESLAB...



Bir vaqtlar O‘zbekiston Qahramoni, el suygan xalq shoiri Erkin Vohidov Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, tumanimizning taniqli shoiri Malik Egam ijodi haqida shunday fikr bildirgan edi:

— “Men Malik Egamni tilga olishni istardim. Uning “Otalarni e’zozlang” she’ri bu shoirning nihoyatda keng ko‘lamda fikr yuritishidan, badiiy mahorati dadillik bilan shakllanayotganidan dalolat beradi”.

Bu, shubhasiz, haqqoniy e’tirof edi. Malik Egam hayotlik chog‘ida o‘zi aytganidek, “dangalini yozadigan” shoir edi.

Uning 2005-yil 10-mart kuni nishonlangan 60 yillik tavallud ayyomiga O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali tashrif buyurgani va ushbu qutlug‘ sana keng nishonlangani muxlislar xotirasida hanuz saqlanib qolgan.

Bugun fotolavhadagi ana shu takrorlanmas lahzalarga yana bir bor nazar tashlab, ularni tumanimiz tarixi uchun o‘z vaqtida muhrlab qo‘yganimdan mamnunlik hissini tuydim.

Otashqalb shoir Malik Egamning yorqin xotirasini yod etar ekanman, bunday insonlarni hech qachon unutib bo‘lmasligini yana bir bor chuqur his qilyapman.

Sevimli shoirimiz Omon Matjon aytganidek:

“Umr o‘tar, vaqt o‘tar...”

Ha, inson aziz, uning xotirasi esa undan-da qadrli.

Sultonboy DEHQONOV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

El ardog‘idagi insonlar



ILMGA BAXSHIDA UMR — HOJI-AKBAR RAHMONQULOV

Ba’zi insonlar bo‘ladiki, ular nafaqat o‘z davrining vakili, balki kelajak avlod uchun ibrat maktabi hamdir. Ana shunday ulug‘ siymolardan biri akademik Hoji-Akbar Rahmonqulov umrini ilm-fan, huquqshunoslik taraqqiyoti va yosh avlod tarbiyasiga bag‘ishlagan fidoyi olim sifatida xalqimiz xotirasidan munosib o‘rin egallagan.

Hoji-Akbar Rahmonqulov 1925-yil 2-sentyabrda Chimkent viloyatining Sayram qishlog‘ida oddiy dehqon oilasida tavallud topgan. Uning yoshlik yillari Ikkinchi jahon urushi davriga to‘g‘ri keldi. O‘sha murakkab yillarda u ham ko‘plab tengdoshlari qatori Vatan taqdiri uchun mas’uliyatni chuqur his etdi. Zavod ishchilari uchun yaratilgan imtiyozlar tufayli frontga bormaslik imkoniyati bo‘lsa-da, u o‘z ixtiyori bilan urushga jo‘nadi.

Urush yillarida frontning eng og‘ir nuqtalarida xizmat qildi, janglarda yaralandi, ammo safdoshlari qatorini tark etmadi. Ana shu matonat, iroda va sabr-toqat keyinchalik uning ilmiy faoliyatida ham yaqqol namoyon bo‘ldi.

1946-yilda Toshkent davlat yuridik institutiga o‘qishga kirgan Hoji-Akbar Rahmonqulov huquqshunoslik ilmining sir-asrorlarini chuqur o‘rgandi. Ayniqsa, fuqarolik huquqi, oila huquqi va xalqaro xususiy huquq yo‘nalishlarida olib borgan ilmiy izlanishlari yurtimiz huquqshunoslik maktabining rivojiga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

Olimning “Xususiy mulk va uning daxlsizligi”, “Oldi-sotdi shartnomasi”, “Xalqaro xususiy huquq” kabi asarlari yuridik sohada muhim ilmiy manbalardan biri sifatida e’tirof etildi. Uning ilmiy qarashlari mustaqillik yillarida milliy qonunchilik tizimining shakllanishi va takomillashuviga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Hoji-Akbar Rahmonqulov nafaqat yirik olim, balki yuksak insoniy fazilatlar sohibi ham edi. Uni yaqindan bilganlar kamtarligi, samimiyligi va odamlarga mehribonligini alohida ta’kidlashadi. U shogirdlari bilan muloqot qilishni, ularning fikrlarini tinglashni va zarur paytda hayotiy maslahatlar berishni yaxshi ko‘rardi.

Ko‘plab shogirdlari ustoz bilan bo‘lgan qisqa suhbatning o‘zi ham ularga kuch-g‘ayrat va ilhom bag‘ishlaganini eslaydilar. Chunki bu inson ilmni faqat nazariya sifatida emas, balki hayot bilan chambarchas bog‘liq holda tushuntira oladigan noyob pedagog edi.

Uzoq yillar davomida ilmiy tadqiqot institutlari, oliy ta’lim muassasalari va yuridik ta’lim tizimida samarali faoliyat yuritgan olim yuzlab huquqshunos kadrlarni tarbiyaladi. Uning ko‘plab shogirdlari bugungi kunda mamlakatimizning turli sohalarida samarali mehnat qilmoqda.

Hoji-Akbar Rahmonqulovning ilm-fan rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi munosib e’tirof etilib, 2000-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi etib saylandi. Shuningdek, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” faxriy unvoni hamda “Jasorat” medali bilan taqdirlandi.

2013-yil 17-iyul kuni ustoz olim hayotdan ko‘z yumdi. Biroq uning boy ilmiy merosi, yaratgan huquqshunoslik maktabi va ezgu insoniy fazilatlari hamon xalqimiz qalbida yashab kelmoqda.

Bugun uning asarlarini mutolaa qilayotgan yoshlar nafaqat huquq ilmining nazariy asoslarini, balki mehnatsevarlik, fidoyilik va ustozlikning yuksak namunalarini ham o‘rganmoqdalar. Hoji-Akbar Rahmonqulovning sermazmun hayoti ilmga sadoqat, Vatanga xizmat va insoniy komillikning yorqin timsoli sifatida avlodlarga ibrat bo‘lib qolaveradi.

Eldor SHARIFOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakultetining 2-bosqich talabasi



SHAVKATLI DAVLAT UCHUN

Olam bizga oqmoqda, quyosh kulib boqmoqda,
Zarrai nurlarini qalbimizga taqmoqda,
O‘zbekiston ovozi olamga xush yoqmoqda,
Jonimni baxsh etgayman shu aziz millat uchun,
Qalamim, bor ijodim shavkatli davlat uchun.

Mamnundir kelgusidan tadbirkor-u mirishkor,
Biz qurgan imoratlar hashamatli, serviqor,
Tolibi ilmlarning barchasi zukko, ilg‘or,
Mashvarat qurdik bu kun ma’rifat, san’at uchun,
Qalamim, bor ijodim shavkatli davlat uchun.

Quyoshga hamohangdir Bekobodning navosi,
Shamol bo‘lib kuylaydi Mo‘g‘oltog‘ning havosi,
Obodlik, yaratmoqlik yurakning chin davosi,
Balkim, eng yaxshi joydir Bekobod jannat uchun,
Qalamim, bor ijodim shavkatli davlat uchun.

Yurtboshim muhabbati, mehri bizga o‘zgacha,
Jo‘shqin mehnat qilgaymiz bahordan to kuzgacha,
Rejalarim hamisha yetib borgan yuzgacha,
O‘zlari ilhom berdi jo‘shqinlik, g‘ayrat uchun,
Qalamim, bor ijodim shavkatli davlat uchun.

Chindan obod etdingiz ijodkorlik bog‘ini,
Madaniyat, ma’rifat, adabiyot tog‘ini,
Allohim keng ochgaydir millatga quchog‘ini,
Ishonchingiz oqlaymiz shul Vatan, sarhad uchun,
Qalamim, bor ijodim shavkatli davlat uchun.

Sizni qutlar chin dildan Bekobodim yoshlari,
Lol qoldi mehringizdan go‘zal qalam qoshlari,
Ilmga, ma’rifatga dadil qadam tashladi,
Kurashga otlanganmiz ijod-u mehnat uchun,
Qalamim, bor ijodim shavkatli davlat uchun!

ASHURALI BOYMUROD

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz:
"Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi 7013.

Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma № Adadi 1825 nusxa. "NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. Mash’al mahallasi, Markaz-1
Bosishga topshirish vaqti: 10:00.
Bosishga topshirildi: 11:00.

Sahifalovchi-dizayner
Shohida TO‘RAQULOVA

ISSN 2091-5497